

# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**27 176**

107,6 %



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**25 869**

106,4 %



### Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)


**3 242**

93,4 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashтирilган тизими bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- sentabr oylarida, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar



(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,1** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan 4,8 foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 480 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 5,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,5 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 26,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishi kuzatildi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 78,6 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,0 %) tashkil etgan va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %) tashkil etdi.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,4 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 497 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 98,1 % ni (jami qurilishdagi ulushi 59,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 35,6 % ni (jami qurilishdagi ulushi 13,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 92,9 % ni (jami qurilishdagi ulushi 27,3 %) tashkil etdi.

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,6** foizga oshdi*




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**10,6**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 7 132 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 7,3 % ga (jami savdodagi ulushi 68,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 18,2 % ga (jami savdodagi ulushi 22,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 19,3 % ga (jami savdodagi ulushi 8,8 %) o'sishidir.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**431**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**28**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**10**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,4 foizga oshdi**



**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**




**9,6**  
foizga oshdi



**Mikrofirmalar**



**Kichik korxonalar**



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

11



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,2** foizga oshdi



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**1,3**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**100**  
yashash bo'yicha xizmatlar



**1 335**  
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 435 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 1,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 %) o'sgan va yashash bo'yicha xizmatlarning 97,1 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,0 %) tashkil qiladi.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Oilaviy korxonalar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 2 254 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 285 ga yoki 14,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 082 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 187 ga yoki 9,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 269 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 55,0 % ni tashkil etgan.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 17 177 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 652 ga yoki 10,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 347 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 417 taga yoki 9,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 371 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,4 % ni tashkil etgan.




# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra 183 tani tashkil etib, ulardan 181 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.

2022-yilning yanvar-avgust oylarida 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

# Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

15



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

16

|                                      | Jami       | shundan:        |                 |
|--------------------------------------|------------|-----------------|-----------------|
|                                      |            | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| <b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b> | <b>181</b> | <b>104</b>      | <b>77</b>       |
| <b>tumanlar:</b>                     |            |                 |                 |
| Amudaryo                             | 5          | 2               | 3               |
| Beruniy                              | 10         | 5               | 5               |
| Bo'zatov                             | 7          | 7               | 0               |
| Qorao'zak                            | 11         | 7               | 4               |
| Kegeyli                              | 6          | 5               | 1               |
| Qo'ng'irot                           | 11         | 8               | 3               |
| Qonliko'l                            | 7          | 3               | 4               |
| Mo'ynoq                              | 37         | 24              | 13              |
| Nukus                                | 9          | 4               | 5               |
| Taxiatosh                            | 8          | 2               | 6               |
| Taxtako'pir                          | 4          | 2               | 2               |
| To'rtko'l                            | 7          | 5               | 2               |
| Xo'jayli                             | 3          | 2               | 1               |
| Chimboy                              | 4          | 3               | 1               |
| Shumanay                             | 3          | 1               | 2               |
| Ellikqal'a                           | 6          | 3               | 3               |
| Nukus sh.                            | 43         | 21              | 22              |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 43 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 23,8 %), Mo'ynoq 37 ta (20,4 %), Qorao'zak va Qo'ng'irotda 11 ta (6,1%), Beruniy 10 ta (5,5%), Nukus tumanı 9 ta (5,0 %), Taxiatosh tumanlarida 8 ta (4,4 %), To'rtko'l, Qonliko'l va Bo'zatovda 7 ta (3,9%), Kegeyli va Ellikqal'a tumanlarida 6 ta (3,3 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

17



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 27 176 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahri (27,9 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal'a (6,3 %), Qo'ng'irot (5,9 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (4,2 %), Chimboy (4,2 %), Kegeyli (3,2 %), Taxiatosh (3,1 %), Qorao'zak (2,8 %), Mo'ynoq (2,7 %), Qonliko'lida (2,6 %), Shumanay tumanlarida (2,4 %), Taxtako'pir (1,9 %) va Bo'zatov (1,6%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar- sentabr oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 3 242 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi Nukus shahrida (23,4 %), To'rtko'l (9,5 %), Beruniyda (8,4 %), Ellikqal'a (8,5 %), Amudaryo (8,3%), Qo'ng'irot (7,0%), Xo'jayli (4,5 %), Kegeylida (4,0 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,3 %), Nukus (3,9 %), Qorao'zak (3,1 %), Taxtako'pir va Mo'ynoqda (2,8 %), Qonliko'l va Shumanayda (2,4 %), Bo'zatov (1,7 %) tumanlari ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

18



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 16 347 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahrida (32,5 %), To'rtko'l (9,9 %), Beruniy (7,4 %), Amudaryo (7,0 %), Qo'ng'irot (5,5 %), Xo'jayli (5,5 %), Nukus (4,9 %), Ellikqal'a (4,5 %), Chimboy (4,4 %), Kegeylida (3,5 %), Mo'ynoq (3,0 %), Qorao'zak (2,9 %), Taxiatosh tumanida (2,5 %), Bo'zatov (1,8 %), Qonliko'l (1,7 %), Shumanay (1,6 %), Taxtako'pir (1,4%) tumanlari hissasiga tegishli.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma'lumotnoma turidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi**  
**Tel.: 61 224-92-09**